

Janubiy Koreyada yashayotgan chet ellik ishchilar uchun sanoat baxtsiz hodisalari zararini undirish tartibi

○ Sanoat baxtsiz hodisalariga qarshi sug'urta degani nima?

- Sanoat jarohati sug'urtasi degani ishchi ish tufayli jarohatlansa yoki og'ir kasallikka chalinsa va 4 kundan ortiq davolanishi kerak bo'lsa davolanib, davolanish vaqti davomida o'rtacha ish haqining 70% ini oladi va agarda ishchi vafot etsa marhumning oila a'zolariga nafaqa puli beriladigan Janubiy Koreyaning jamiyat sug'urtasi tizimidir.
- Chet ellik ishchilar ham Koreyada qonuniy yoki noqonuniy (legal va nolegal) bo'lishidan qat'iy nazar Koreya fuqarolari bilan teng ravishda sanoat jarohati sug'urtasiga a'zo bo'lishi va yordam olishi mumkin. Agarda korxonada boshlig'i sanoat sug'urtasiga a'zo bo'lishga rozi bo'lmasa ham ishchining o'zi bu sug'urtaga a'zo bo'lsa bo'ladi.


○ Chet ellik ishchilar sanoat jarohati zararini undirish tartibi

- Mehnatni muxofaza qilish tashkiloti sayti, sanoat jarohati sug'urtasi tibbiy muassasasida turgan davolanish uchun yordam puli olish arizasining tayyor shaklini to'ldirib, ishlayotgan korxonasi ro'yxatga olingan hududda joylashgan filialga topshiriladi

※ Baxtsiz hodisa tafsilotlari o'rganilayotgan paytda korxonada boshlig'i va ishchidan aynan nima ish bilan shug'ullanganligini aniqlab, bu bo'yicha qo'shimcha hujjatlar ham so'rashi mumkin. Bunday vaziyatda yordam puli ajratish uzoqqa cho'zilishi ham mumkin

※ Ishchi ishlab yurib ishi tufayli og'ir kasallikka uchrasa va bu bo'yicha yordam puli olish uchun ariza bersa ish tufayli og'ir kasallikka uchrashni tekshirish komissiyasi tomonidan bu kasallik aynan ish tufayli bo'lgan yoki bo'lmaganligi aniqlanadi.

○ Ishni hal qilish tartibi



○ Sug'urta nafaqasi turlari

| | |
|---|--|
| Davolanish uchun yordam puli | Ish paytidagi baxtsiz hodisa tufayli 4 kundan ortiq davolanishi lozim bo'lgan ishchi uchun Janubiy Koreya sanoat jarohatlarini davolash uchun belgilab qo'ygan tibbiyot muassasalarida davolanadi |
| Ishga layoqatsizlik nafaqasi | Ish tufayli jarohatlansa yoki og'ir kasallikka chalinsa davolanishi uchun ishga chiqma olmasligini hisobga olib, ishga chiqmagan kunlari uchun kuniga o'rtacha ish haqining 70% i beriladi |
| Jarohatlanganligi uchun yordam puli | Davolanish boshlanganiga 2 yil bo'lsa ham jarohati yoki og'ir kasalligi tuzalib ketmasa, va bu holat qonunda belgilangan ishga layoqatsizlik darajasi me'yoriga to'g'ri keladigan bo'lsa beriladigan yordam puli |
| Ish tufayli baxtsiz hodisa ro'y berganda oladigan yordam puli | Jarohati yoki og'ir kasalligi tuzalib ketgandan so'ng ham kasallik asoratlari qoladigan bo'lsa, kasallik asoratlari 14 ta darajaga bo'linib, belgilangan daraja bo'yicha yordam puli beriladi |
| Marhum oila a'zolariga beriladigan nafaqa puli va dafn qilish uchun pul | Baxtsiz hodisa tufayli vafot etgan ishchining oila a'zolariga yillik nafaqa(bir martalik) ajratilib, dafn marosimi o'tkazadigan odamga dafn marosimi xarajatlarini qoplash uchun yordam puli ajratiladi |